

O`ZBEK TILI VA UNING TARAQQIYOTI

Qazaqbayeva Dilafruz Abdullayevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10455964>

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyatning hayotida tilning o`rni va o`zbek tilining rivojlanish taraqqiyoti, yurtimizda tilga berilayotgan e`tibor, o`zbek tilining davlat tili sifatida rasman qabul qilinganligi hamda bugungi kunga kelib o`zbek tilining qanday darajaga yetib kelganligi haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: O`zbek tili, taraqqiyot, fikr, inson, mohiyat, adabiy til, tilshunoslik, tarixiy, axborot.

UZBEK LANGUAGE AND ITS DEVELOPMENT

Abstract. This article talks about the role of language in the life of mankind and the progress of the development of the Uzbek language, the attention given to the language in our country, the fact that the Uzbek language was officially accepted as the state language, and what level the Uzbek language has reached today.

Key words: Uzbek language, development, thought, human, essence, literary language, linguistics, historical, information.

УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК И ЕГО РАЗВИТИЕ

Аннотация. В данной статье рассказывается о роли языка в жизни человечества и ходе развития узбекского языка, о внимании, уделяемом языку в нашей стране, о том, что узбекский язык был официально признан государственным, и о том, что уровня, которого достиг сегодня узбекский язык.

Ключевые слова: узбекский язык, развитие, мысль, человек, сущность, литературный язык, лингвистика, историческая, информация.

Til inson hayotida muhim rol o`ynaydigan hodisadir. Insonning butun hayoti til bilan bog`langan bo`lib, til yordamida insonlar o`zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan sifatlarni o`zida mujassamlashtirgan hodisadir.

Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo`lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jaroyinida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan-avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Tilning tabiat, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy o`rganishni talab qiladi.

XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g`oyasi keng yoyilgan. Chunki jahondagi ko`pgina mamlakatlar o`z mustaqilligiga erishib, davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ham ega bo`lgan. 1989-yil 21-oktabr kuni O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so`ng o`zbek tili davlat tili deb e`lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro`y berdi.

Til haqidagi qonunning qabul qilinishi ona tilimiz bo`lmish o`zbek tilining muhofazasini ta`minladi. Hayotimizning barcha sohalarida ona tilimizdan keng qo`llanila boshlandi. O`zbekistonning mustaqil suveren davlat sifatida dunyo xaritasidan joy olishi esa mazkur qonunning kuchini yanada oshirdi.

Turkiy tillarni tasniflash va uning taraqqiyoti tarixini davrlashtirish bilan bog'liq ravishda o'zbek adabiy til tarixi ham olimlar tomonidan turlicha davrlashtiriladi. Jumladan, S.Ye.Malov o'zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo'lib o'rghanadi:

- 1) Uyg'ur adabiy tili;
- 2) Chig'atoy adabiy tili;
- 3) O'zbek adabiy tili

Til taraqqiyotining yuqorida ko'rsatilgan uch tomoni va adabiy til tarixini o'rghanishning uch jihatni nuqtai nazaridan uning taraqqiyot davrlarini aniqlash imkoniyatini beruvchi til tizimining quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin. Bu belgilar esa til taraqqiyoti davrlarini, bosqichlarini aniqlash imkoniyatini beradi:

1. Adabiy til uslublarining miqdori, ularning o'zaro munosabati va ijtimoiy vazifalari.
2. Adabiy til uslublari hamda uning turlarini aniqlashda asos bo'lgan tuzilma va funksional belgilar.
3. Adabiy til tuzilmasi, uning ko'lami va ijtimoiy vazifalari hamda u bilan so'zlashuv nutqi ko'rinishlarining o'zaro bog'liqligi.

Tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlar. Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi tilning tasnifi, uni tahlil qi-lish usullari va shu kabi masalalarini o'rghanadigan fandir. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi tufayli til sotsiologlar tomonidan ham o'rghaniladi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqeя va ho-disalar tilda aks etmay qolmaydi.

Til va boshqa aloqa vositalari orasida o'xshashlik va farqlar mavjud.

Bu vositalarni bir biri bilan birlashtiradigan xususiyatlar quyidagilar:

- fikr va hissiyotlarni ifodalaydi;
- ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qiladi;
- moddiy (tovush to'lqinlari, grafik chizmalar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi);
- obektiv borliqni aks ettiradi.

Ular o'rtasida quyidagi farqlar bor:

- til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo'llaydi.

Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko'lami cheklangan, masalan, ko'cha harakati belgilari asosan haydovchilarga xizmat qiladi, boshqa yerda ishlatilmaydi;

- til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish- istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi;

- tildan boshqa barcha signal sistemalari sun'iydir.

Ular odamlar tomonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor:

- a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr);
- b) qadimgi turkiy til(VII-XI asrlar);
- v) eski turkiy til (XIXIII asrlar);
- g) eski o'zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar);

d) yangi o‘zbek adabiy tili (XIX asrning oxiri – XX-asrning 20-yillari).

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ana shu tarixiy ildizlardan o‘sib chiqib, o‘zbek milliy tilining oliv formasi darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbek tilshunosligida o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini boshqacharoq tasnif qilish holatlari ham uchraydi.

O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish qadimgi turkiy tildan Hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan lisoniy taraqqiyot dinamikasini kuzatish, Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qadimgi turkiy, eski turkiy va eski O‘zbek adabiy tillaridan farqlarini aniqlash imkonini beradi.

Bunday farqlarning paydo bo‘lishi, odatda, ikki omilga asoslanadi:

- 1) muayyan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga - tilning o‘zidagi sistemaviy va strukturaviy hodisalar munosabatiga;
- 2) ikki yoki undan ortiq tillar o‘rtasidagi kontaktga (interstrat munosabatiga).

O‘zbek tili taraqqiyotida eng qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy til substrat (asos til) vazifasini, arab, tojik-fors va rus tillari esa superstrat (ustama til) vazifasini o`tagan. Substrat va superstrat tillar o‘rtasidagi aloqa odatda bilingvism (ikki tillilik) yoki polilingvism (ko‘p tillilik) sharoitida yuzaga keladi va tillar substratsiyasi deb ataladi: turkiy-arab, turkiy-fors, o‘zbek-arab, o‘zbektojik, o‘zbek-rus ikki tilliliklari sharoitida asos til bilan ustama tillar o‘rtasida bog‘langan aloqalar ana shunday substratsiyalar sanaladi. Ayni shu omillar (ichki taraqqiyot qonuniyatları bilan birga) qadimgi turkiy tildan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan davrda til strukturasida qator o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan.

O‘zbek tili bugungi kungacha ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyot yo‘lini mardonavor bosib kelmoqda. O‘rxun-Enasoy yodgorliklaridagi bitiklardan tortib hozirgi davrgacha yaratib kelinayotgan ilmiy, adabiy, ma’naviy-ma’rifiy manbalar o‘zbek tilining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari, adabiy ifodasi, ma’no qatlamlari, lug‘at tarkibi to‘g‘risida atroflicha va asosli ma’lumotlar bera oladi.

Bugun ham tilimizga bo‘lgan hurmatsizlik holatlar uchramoqda. Biz yoshlar ham xuddi Navoiy bobomizdek, tilimiz qaddini hamisha sarbaland etmog‘imiz shart. Tilimiz bilan bog‘liq muammolarning yechimi esa-oná tilimizni sevish, uni ardoqlash bilan bog‘liqdir. Mana shu pallada ko‘p narsa bizga bog‘liqdir. Bir yoqadan bosh chiqarib, tilimiz himoyasi uchun birlashishimiz, katta maydonga chiqishimiz shart.

REFERENCES

1. Usmon Sanaqulov – O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari (V-XIV)